



NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN  
VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2024- YIL  
YANVAR-IYUL**

2024-yilning yanvar-iyul oyida, Namangan viloyatida jami **4178,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **107,2 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

31,1

7,2

61,7


Norasmiy sektor

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

**2024- yil 1- avgust holatiga  
ko‘ra qurilish ishlari  
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar, birlikda**



**Yillar kesimida soni**



780

Bino va inshootlar qurilishi


229

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

446

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Hududlar kesimida**



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yil bilan solishtirganda 89,2 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 53,6 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 15,7 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 30,7 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.08.2023- y.	01.08.2024- y.	
Namangan viloyati	1631	1455	89,2

*tumanlar:*

Mingbuloq	59	47	79,7
Kosonsoy	167	141	84,4
Namangan	74	56	75,7
Norin	91	79	86,8
Pop	100	88	88,0
To'raqo'rg'on	69	62	89,9
Uychi	168	142	84,5
Uchqo'rg'on	126	93	73,8
Chortoq	108	100	92,6
Chust	119	129	108,4
Yangiqo'rg'on	83	78	94,0
Namangan shahar	467	440	94,2
shundan			
Davlatobod	132	128	97,0
Yangi Namangan	113	122	108,0



**2024- yil 1- avgust holatiga ko‘ra  
Namangan viloyatida  
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Namangan sh.(30,2)



Uychi (9,8)



Kosonsoy (9,7)





## Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4178853,3</b>	<b>298994,9</b>	<b>2578916,2</b>	<b>1300942,2</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Mingbulloq</b>	141994,2	7496,2	73156,7	61341,3
<b>Kosonsoy</b>	334088,7	18353,0	150224,6	165511,1
<b>Namangan</b>	264504,7	29327,5	141649,9	93527,3
<b>Norin</b>	209212,1	7409,8	106961,3	94841,0
<b>Pop</b>	202771,7	87629,8	54219,8	60922,1
<b>To'raqo'rg'on</b>	179863,5	5849,6	97029,3	76984,6
<b>Uychi</b>	506184,3	8454,8	413388,0	84341,5
<b>Uchqo'rg'on</b>	288762,3	39415,0	115960,9	133386,3
<b>Chortoq</b>	303072,5	11044,9	186819,4	105208,2
<b>Chust</b>	221108,7	4840,1	89693,7	126574,9
<b>Yangiqo'rg'on</b>	230674,7	7592,0	105440,3	117642,4
<b>Namangan sh.</b>	1296615,9	71582,2	1044372,2	180661,3
<b>shundan</b>				
<b>Davlatobod</b>	523329,7	0,0	469767,6	53562,1
<b>Yangi Namangan</b>	415698,5	24658,7	319712,9	71326,9


2024- yilning yanvar-iyul oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 298994,9 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 105,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari


## 2024- yil yanvar-iyul uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,1 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,7 %iga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,3 % ni tashkil etgan holda 2578916,2 mln. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




61,7

2024- yil  
yanvar-iyul

61,9


2023- yil  
yanvar-iyul



**MA’LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Namangan shahri (1044372,4 mln. so‘m hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 80,5 %), Uychi tumani (413388,0 mln. so‘m yoki 81,7 %), Chortoq tumani (186819,4 mln. so‘m yoki 61,6 %)ga to‘g‘ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 31,1 % ni tashkil etdi yoki 1300942,2 mln. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,7 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 191970,7 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3986882,6 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2024- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **74,4 %** yoki **3109965,4 mln. soʻm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**6,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **188957,1 mln. soʻmlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **6,1 %** ni tashkil etdi.

**55,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1713592,4 mln. soʻm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,1 %** ni tashkil etdi

**38,8 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1207415,9 mln. soʻm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **38,8 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4178853,3</b>	<b>107,2</b>	<b>3109965,4</b>
<b>tumanlar:</b>			
Mingbuloq	141994,2	106,1	108848,8
Kosonsoy	334088,7	103,1	239467,3
Namangan	264504,7	107,4	189707,9
Norin	209212,1	112,2	174158,1
Pop	202771,7	120,8	158608,2
To'raqo'rg'on	179863,5	110,4	127508,6
Uychi	506184,3	105,7	351426,1
Uchqo'rg'on	288762,3	115,7	223917,5
Chortoq	303072,5	109,6	220807,5
Chust	221108,7	100,0	189707,9
Yangiqo'rg'on	230674,7	119,6	177268,0
Namangan shahri	1296615,9	103,1	948539,5
shundan			
Davlatobod	523329,7	100,1	394965,6
Yangi Namangan	415698,5	105,5	292336,7

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,4 % ni tashkil etgan. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 53,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 44,0 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 53,5 % hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar-iyul




Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2024- yil yanvar-iyul

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari hamda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 97,3 % ni kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etgan.



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	1356,6	107,9
<b>tumanlar:</b>		
Mingbuloq	1031,9	107,0
Kosonsoy	1458,3	103,9
Namangan	1366,2	108,0
Norin	1185,3	113,5
Pop	857,0	122,0
To'raqo'rg'on	730,0	111,2
Uychi	2167,8	106,2
Uchqo'rg'on	1551,7	116,9
Chortoq	1405,1	110,4
Chust	770,7	101,0
Yangiqo'rg'on	968,8	120,8
Namangan shahri	1851,3	103,2

# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-iyul



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-iyul oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani – 2167,8 ming so'm yoki, 2023- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 106,2 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahar – 1851,3 ming so'm (yoki 103,2 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**